MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TOVUSH MADANIYATI VA BOG‘LANISHLI NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

M.X.Axmedova[1]

1. Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi prof. v/b., p.f.d.

Mas'ul muallif: Axmedova Muyassar Xadimatovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi prof. v/b., p.f.d.

e-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

Received: 29 Oktabr 2026
Accepted: 03 Noyabr 2026
Published: 08 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Axmedova, M. X. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TOVUSH MADANIYATI VA BOG‘LANISHLI NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI / M. X. Axmedova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 272–275.

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Unda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish, to‘g‘ri talaffuz, artikulyatsion va intonatsion ko‘nikmalarni rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri va ravon nutqni shakllantirish hamda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonida fonetik mashqlar, savol-javob, aqliy hujum, didaktik va nutqiy o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, tasviriy hamda ijodiy hikoya tuzish usullaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachining nutq namunasi, muloqot muhiti va muntazam mashg‘ulotlarning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta’lim, bola nutqi, nutqni rivojlantirish, tovush madaniyati, talaffuz, artikulyatsiya, intonatsiya, lug‘at, grammatik qurilish, bog‘lanishli nutq, dialogik nutq, monologik nutq, hikoya tuzish, fonetik mashqlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗВУКОВОЙ КУЛЬТУРЫ И СВЯЗНОЙ РЕЧИ В РАЗВИТИИ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические основы развития речевых навыков у детей дошкольного возраста. Особое внимание уделяется развитию звуковой культуры речи, правильного произношения, артикуляционных и интонационных навыков, обогащению словарного запаса, формированию грамматически правильной и беглой речи, а также развитию связной речи. В статье также анализируется значение использования фонетических упражнений, вопросов и ответов, мозгового штурма, дидактических и речевых игр, творческих заданий, а также методов описательного и творческого рассказывания в процессе дошкольного образования. Обосновывается роль речевого образца педагога, благоприятной коммуникативной среды и систематически организованных образовательных занятий в развитии речи детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, речь детей, развитие речи, звуковая культура речи, произношение, артикуляция, интонация, словарный запас, грамматический строй речи, связная речь, диалогическая речь, монологическая речь, рассказывание, фонетические упражнения.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING SOUND CULTURE AND COHERENT SPEECH IN PRESCHOOL CHILDREN'S SPEECH DEVELOPMENT

Abstract. This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing speech skills in preschool-aged children. Particular attention is paid to the development of speech sound culture, correct pronunciation, articulation and intonation skills, vocabulary enrichment, the formation of grammatically correct and fluent speech, and the development of coherent speech. The article also analyzes the importance of using phonetic exercises, question-and-answer activities, brainstorming, didactic and speech-based games, creative tasks, as well as descriptive and creative storytelling techniques in the preschool education process. The role of the teacher’s speech model, a supportive communication environment, and regular learning activities in promoting children’s speech development is also substantiated.

Keywords: preschool education, children’s speech, speech development, speech sound culture, pronunciation, articulation, intonation, vocabulary, grammatical structure, coherent speech, dialogic speech, monologic speech, storytelling, phonetic exercises.

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolaning atrof-muhitni anglash, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish, o‘z fikrini ifodalash, savol berish, javob qaytarish, voqea-hodisalarni izchil bayon etish kabi ko‘nikmalari jadal rivojlanadi. Ushbu jarayonlarning deyarli barchasi nutq bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida

bolaning nutqini rivojlantirish faqat so‘z boyligini oshirish bilan cheklanmasdan, uni mustaqil fikrlash, mazmunli suhbat qurish va bog‘lanishli tarzda fikr bildirishga tayyorlashni ham nazarda tutishi lozim.

Bola nutqining rivojlanishida kattalarning nutqi muhim rol o‘ynaydi, chunki u bolalar uchun o‘ziga xos “namunaviy” nutq hisoblanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bola tilni ortiqcha zo‘riqishlarsiz, tabiiy va spontan tarzda o‘zlashtiradi. Olimlar bolalardagi til va nutq rivojlanishini markaziy asab tizimining fiziologik yetilishi hamda ushbu davrda uning yuqori moslashuvchanligi bilan bog‘laydilar [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bular qatoriga nutqning tovush madaniyatini shakllantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni rivojlantirish, dialogik va monologik nutqni shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish hamda nutqning ifodaliligini ta’minlash kiradi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va maktabgacha ta’lim metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. D.R. Babayeva tomonidan ishlab chiqilgan «Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» darsligida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yo‘nalishlari, shakllari, vositalari va metodlari keng yoritilgan [3].

Nutqni rivojlantirish metodikasi bolaning ona tilini egallashi, muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi va o‘z fikrini nutq orqali ifodalashini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyatni o‘rganadi [5].

Hozirgi davrda maktabgacha yoshda hamda inson hayoti davomida nutqni o‘zlashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar jadallashmoqda. Chunki til insonlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, ularning fikrlari, hissiyotlari va intilishlarini ifodalash, tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Maktab gacha yoshdagi bolalarda kognitiv muloqot va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish rivojlanishning qulay davrida bolalarning aqliy, badiiy va nutqiy tarbiyasi muammolarini hal etishning muhim sharti hisoblanadi. Bog‘lanishli nutq qanchalik faol rivojlangan bo‘lsa, bola undan shunchalik erkin foydalanadi. Ravon nutqiy ko‘nikmalarga ega tarbiyalanuvchilar erkin so‘zlash, fikrlash, savollar berish va xulosalar chiqarishda kamroq qiyinchilikka duch keladilar[1].

Badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ham bolalar nutqining rivojlanishida muhim vosita sifatida qaraladi. Ertak, hikoya, she’r, maqol, matal, topishmoq va boshqa folklor janrlari bolalarning so‘z boyligini kengaytirish bilan birga, ularning obrazli tafakkuri va ifodali nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturining mazmuni ham takomillashtirib borilmoqda. Dasturga kiritilgan yangilanishlar maktabgacha ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga qaratilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish, xususan, nutqning tovush madaniyati, to‘g‘ri talaffuz, artikulyatsion va intonatsion ko‘nikmalar, lug‘at boyligi hamda bog‘lanishli nutqni shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqotda maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik metod va usullarning samaradorligini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar. Nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari. Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy tamoyillariga tayanadi. Til inson faoliyatining turli sohalarida muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli maktabgacha ta’limda nutqni rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bolani ona tilining imkoniyatlaridan amaliy foydalanishga o‘rgatishdir.

Til va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir xil hodisa emas. Bola tashqi olam haqidagi tasavvurlarini dastlab amaliy faoliyat orqali hosil qiladi, keyinchalik esa bu bilim va tajribalarini nutq yordamida ifodalay boshlaydi. Demak, bolaning nutqiy rivojlanishi uning bilish faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy tajribani egallashi bilan uzviy bog‘liq.

Maktabgacha yoshning katta bosqichiga kelib bolaning tengdoshlari bilan muloqoti tobora faollashadi. Bola o‘z fikrini sherigiga tushuntirish, uning fikrini tinglash, savollar berish, javob qaytarish, o‘yindagi harakatlarni kelishib olish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishga ehtiyoj sezadi. Shu sababli nutqning ijtimoiy funksiyasi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Nutq bolaning amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bola vaziyatga qarab so‘z, gap, imo-ishora, yuz ifodasi va boshqa kommunikativ vositalardan foydalanadi. Shu jarayonda uning nutqi mazmunan boyib, grammatik va fonetik jihatdan takomillashib boradi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish. Bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyatini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Tilni amaliy o‘zlashtirish tovush, bo‘g‘in, ibora va matnni tinglab farqlash hamda ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni nazarda tutadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasi muntazam mashqlar orqali shakllantirilishi lozim.

Nutqning tovush madaniyati deganda, avvalo, tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlardagi urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash, ovoz balandligi va nutq tezligini vaziyatga moslashtirish, intonatsiyadan o‘rinli foydalanish hamda fikrni ravon ifodalash tushuniladi.

Tovushlarni talaffuz qilish jarayonida lablar, tishlar, til, tanglay va boshqa nutq organlari faol ishtirok etadi. Shuning uchun bolalarga nutq organlarining vazifalarini sodda va tushunarli usulda tushuntirish hamda ularning artikulyatsion harakatlarini mashq qildirish muhimdir.

Masalan, tarbiyachi bolalarga tilni yuqoriga ko‘tarish, pastga tushirish, o‘ng va chap tomonga harakatlantirish, til uchini tishlar orqasiga yo‘naltirish kabi mashqlarni bajartirishi mumkin. Bunday mashqlar nutq organlarining harakatchanligini oshirib, tovushlarni aniq talaffuz qilishga tayyorlaydi.

Tovush artikulyatsiyasini egallash uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, har bir bola bu ko‘nikmani turli muddatlarda

o‘zlashtirishi mumkin. Bunda bolaning individual xususiyatlari, nutqiy muhiti va kattalarning nutq namunalari muhim rol o‘ynaydi. Bola to‘g‘ri adabiy talaffuzga ega bo‘lgan kishilar bilan muntazam muloqot qilsa, to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yuzaga keladi.

Artikulyatsion mashqlarning ahamiyati. Artikulyatsion mashqlar bolalarda tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlarining harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Bunday mashqlarni qiziqarli o‘yinlar asosida tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, «Quvnoq tilcha haqida ertak» asosidagi mashg‘ulotda til obrazli tarzda jonlantiriladi. Bola tilni yuqoriga ko‘tarish, pastga tushirish, lablarni jilmaytirish, oldinga cho‘zish, tilni o‘ng va chap tomonga harakatlantirish kabi mashqlarni bajaradi. Bunda bola o‘z nutq organlarining harakatini kuzatadi va ularni boshqarishni o‘rganadi.

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, murakkab artikulyatsion harakatlar bolaga o‘yin va ertak vositasida tushuntiriladi. Natijada mashq oddiy takrorlash emas, balki mazmunli faoliyatga aylanadi.

Artikulyatsion mashqlarni muntazam bajarish tovushlarni aniq talaffuz qilish bilan bir qatorda bolaning o‘z nutqiga bo‘lgan e’tiborini ham kuchaytiradi.

Intonatsiya va nutqning ifodaliligi. Nutqning ifodaliligini ta’minlashda ohang, tembr, pauza, urg‘u, nutq tempi va ovoz balandligi muhim vositalardir. Bolaga intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish orqali u nafaqat fikr mazmunini, balki o‘zining hissiy munosabatini ham ifodalashga o‘rganadi. Masalan, quvonch, hayrat, qo‘rquv, achinish, xafa bo‘lish yoki hayajon kabi holatlar turli ohanglar orqali ifodalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga bir xil gapni turli hissiy holatlarda ayttirish orqali intonatsion imkoniyatlarni rivojlantirishi mumkin.

Bunda bolaning ovoz balandligi va nutq tezligi vaziyatga mos bo‘lishi kerak. Masalan, hikoyadagi muhim voqea yoki qahramonning holatini ifodalashda ovozni biroz o‘zgartirish, pauza qilish yoki mantiqiy urg‘udan foydalanish hikoyaning ta’sirchanligini oshiradi.

Intonatsiya ustidagi ishlar bolalarning matnni ongli ravishda tinglashiga ham yordam beradi. Bola qaysi so‘zga urg‘u berilganini, qayerda pauza qilinganini, ovozning qachon baland yoki past aytilganini sezishga o‘rganadi. Bu esa keyinchalik ifodali o‘qish va musiqa tinglash ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fonematik eshituv va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bolalarda fonematik eshituvni shakllantirish nutqni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Bola so‘z tarkibidagi tovushlarni eshitib farqlay olishi, tovushlarning o‘rnini aniqlashi va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishi kerak.

Tarbiyachi artikulyatsion va akustik jihatdan yaqin tovushlarni farqlashga qaratilgan mashqlardan foydalanishi mumkin. Masalan, jarangli va jarangsiz, qattiq va yumshoq tovushlarni eshitib ajratish, so‘z boshida yoki oxirida ma’lum tovushning mavjudligini aniqlash kabi topshiriqlar samarali natija beradi.

«O» tovushini o‘rgatishga qaratilgan mashg‘ulot bunga misol bo‘la oladi. Bolalar tovushning unli ekanligini aniqlaydilar, uning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishini misollar orqali o‘rganadilar. «Ot», «sado», «non» kabi so‘zlar yordamida tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlash mumkin.

Bunday mashg‘ulotlarda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Rasmlar, rangli belgilar, kubiklar va boshqa didaktik vositalar bolalarning mavzuni tezroq anglashiga yordam beradi.

Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Nutqni rivojlantirishning yana bir muhim yo‘nalishi grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bola so‘zlarni gap tarkibida to‘g‘ri bog‘lashni, birlik va ko‘plik shakllaridan foydalanishni, fe’l va sifatlarni o‘rinli qo‘llashni o‘rganishi kerak.

Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirishda amaliy mashqlar, savol-javoblar va didaktik o‘yinlardan foydalanish samarali. Masalan, «So‘zni o‘zgartir» o‘yinida bola bir so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirib, yangi gap tuzadi. «Jo‘ja kuchukchani uchratdi» gapidagi so‘zlardan birini almashtirish orqali «Mushuk kuchukchani uchratdi» kabi yangi gap hosil qilinadi.

Bunday mashqlar bolaning so‘z va gap o‘rtasidagi munosabatni anglashiga, gap tuzilishini amaliy ravishda o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish. Maktabgacha ta’limda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bog‘lanishli nutq orqali bola o‘z fikrlarini izchil, mantiqiy va tushunarli tarzda bayon qilishni o‘rganadi.

Ravon nutqni shakllantirishda so‘zlar, gaplar va matn qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunish muhimdir. Bola voqeaning boshlanishi, rivoji va yakunini izchil bayon qila olishi kerak.

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda tasvirlash, bayon qilish va mulohaza yuritish kabi nutq shakllaridan foydalaniladi. Masalan, «Kuz» mavzusida bola avval ob-havoni tasvirlaydi, keyin daraxtlardagi o‘zgarishlarni bayon qiladi va oxirida kuz fasliga munosabatini bildiradi. Tarbiyachi hikoya tuzishdan oldin bolalarga mavzu yuzasidan savollar berishi, zarur so‘zlarni eslatishi va hikoyaning umumiy tuzilishini tushuntirishi mumkin.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab, tizimli va uzluksiz pedagogik jarayondir. Uning samaradorligi tovush madaniyati, lug‘at boyligi, grammatik qurilish, dialogik va monologik nutq, bog‘lanishli nutq hamda nutqning ifodaliligi kabi yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘un holda olib borilishiga bog‘liq.

To‘g‘ri talaffuzni shakllantirishda artikulyatsion mashqlar, fonematik eshituvni rivojlantirishda tovushli o‘yinlar, lug‘atni boyitishda mavzuli suhbat va ijodiy topshiriqlar, bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda esa tasviriy va ijodiy hikoya tuzish mashg‘ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, mashg‘ulotlarni o‘yin, ertak, rasm, savol-javob va interfaol usullar asosida tashkil etish bolalarning qiziqishini oshiradi. Bunday yondashuv bolaga nutqiy materialni mexanik yodlash emas, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi.

Tarbiyachining to‘g‘ri va ifodali nutqi, bolalar bilan samimiy muloqoti, ularning fikrini tinglashi va mustaqil fikrlashiga sharoit yaratishi nutq rivojining muhim omillaridan biridir. Muntazam tashkil etilgan nutqiy mashg‘ulotlar natijasida bola tovushlarni aniq talaffuz qilish, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish, suhbatdoshini tinglash va o‘z fikrini izchil bayon qilish ko‘nikmalarini egallaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim davrida nutqni rivojlantirishga kompleks yondashish bolaning kommunikativ qobiliyatlarini, tafakkurini, ijodiy imkoniyatlarini va keyingi ta’limga tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiyaning erta yoshdan shakllantirilishi bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishi va kelgusida ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Axmedova M.X., Rajabova S.R. Ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishini psixologik xususiyatlari //Maktabgacha va maktab ta’limi. - Toshkent, 2026. №1. B.442-444.

[2] Axmedova M.X., Meliboyeva R.M. Bola nutqini chiroyli rivojlantirish – noadabiy so‘zlar tanazzulidir // Bola va zamon, 2021. №1. B. 34-35.

[3] Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi: darslik. - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - 432 b.-1-7.

[4] Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. - 2-nashr. - Toshkent, 2022.

[5] Qodirova Sh. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi: ma’ruza matni. - 2018. - ZiyoNET elektron kutubxonasi.

[6] Otahanova M.G‘. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (uchinchi nashri)dagi o‘zgarishlar // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. - 2025. - № 10. - B. 16–20.

[7] Esonova M.A. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonlarini tashkil etish muammolari // ZDIFT. - 2023. - № 2(16). - B. 78–82.